



XIII-XIV ASR – MAMLUKIYLAR DAVRIDA ISLOM ILMMLARI RIVOJI

Saidakbarov Xalilulloh Saidmuxtor o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti.
+998 97 756 56 30.

Saidakbarov Khalilulloh Saidmukhtor ugli

Doctoral student of the International Islamic Academy of Uzbekistan.
+998 97 756 56 30.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12547131>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-June 2024 yil

Ma'qullandi: 20- June 2024 yil

Nashr qilindi: 26- June 2024 yil

KEYWORDS

Mamlukiylar, qur'on, hadis, fiqh, qiroat, madrasa, tarix

ABSTRACT

Ushbu maqolada Mamlukiylar davrida islom ilmlari rivojiga to'xtalib o'tilgan. Mamlukiylar islom tarixidagi muhim davlatlardan biri bo'lib, bu davrda Qur'on ilmlari, hadis, fiqh, qiroat, tasavvuf hamda tarix ilmi rivojlangan. Mamlakat san'at va madaniyat markazi bo'lib tibbiyot, geografiya va matematika kabi tabiiy fanlar ham rivojlangan.

Hilofa-i roshidinlar davridan islom ilmlarining eng muhim markazlari orasiga kirgan Qohira va Damashq shaharlari salkam ikki yarim asr hukm surgan Mamlukiylar davrida faqat bu davlatning emas, balki butun islom dunyosining eng katta ikki madaniyat markazi edi¹. Mamlukiylar boshqaruvi ostida Misr san'at va tafakkurda avval markaz bo'lgani kabi, bu davrda ham turli to'qnashuvlardan uzoqda bo'lib, ilm va madaniyat muhitining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan edi².

Bu davrda mo'g'ul va salib yurishi istilolari natijasida islom dunyosining boshqa o'lkalaridagi ko'plab olimlar turli yerlarga ko'chib o'tishgan edi. Bu ko'chib o'tishlar asnosida islom dunyosining turli diyorlarida yetishib chiqqan bir qancha olimlarning Damashq va Misrga kelishi katta ilmiy va madaniy muhitni yaratgan.

ASOSIY QISM

Ilmiy va madaniy muhit u davrda ta'lim muassasasi hisoblangan madrasalar vositasida vujudga kelgan. Madrasalar davlatning rasmiy muassasasi hisoblanmasa-da, davlat madrasalar faoliyatida katta hissaga ega bo'lgan. Madrasalar faoliyati hayrsevar musulmonlar hamda vaqflar soyasida tashkil topgan. Mamluk sultonlari ham davlatning har tarafida madrasa qurdirar va bu madrasalarni katta tantana bilan ochishar edi³. Sulton Nosir Muhammad davrida Qohiraga kelgan Ibn Battuta Misrdagi madrasalar haqida quyidagilarni yozadi: "Misrda madrasalar shunday ko'pki sonini hech kim bilmaydi".⁴ Ayni shaklda Damashq XII asrdan e'tiboran, xususan, Mamlukiylar davrida eng ko'p madrasa joylashgan shahar holiga kelgan⁵.

¹ Ismoil Yigit. Tarix. J. VII.B. 243.

² A.Vahbe Ajar. Islom tarixi darslari. J. II. Qaysari, 1995. B.29.

³ Koprman. "Mamluklar", Tarix. J. VI. B. 41-42.

⁴ Ibn Battuta. Sayohatnoma. B.48

⁵ Ismar Kayaog'ullari. Islom muassasalari tarixi, Anqara 1984. B.127

Damashqdagi madrasalarni va ularning sonini o'rganish uchun Nuaymiyning 1500-yillarda yozgan asariga qarash yetarlidir. Nuaymiy u davrda Damashq ichida ta'lim beruvchi 550 ta atrofida masjidning nomini va u yerdagi vazifadorlarning ism-sharifini o'z asarida ma'lum qilgan⁶. Damashqdagi madrasalarning aksariyati turli ilmlarda dars berishi bilan birga, faqat bir ilmga yo'naltirilgan madrasalar ham faoliyat yuritgan. Masalan, tafsir sohasida ta'lim bergan madrasalarga "Dorul Qur'on", hadis sohasida ta'lim bergan madrasalarga esa "Dorul hadis" deyilar edi. Shu bilan birga bu shaharda faqat fiqh ilmidan dars bergan madrasalar ham bo'lgan. Bu madrasalarda to'rt mazhab fiqhi o'qitilishi bilan birga ko'proq shofe'iy mazhabi fiqhidan ta'lim berilgan. Qur'on, hadis, fiqh ilmlari bilan birgalikda bu davr madrasalarida kalom ilmiga ham katta ahamiyat qaratilar edi. Shialikning ta'sirini ketkazish maqsadida sunniy kalom maktablarini qo'llash Mamlukiylar davrida yanada ortib borgan.

Mamlukiylar davrida madrasalarning bu darajada ortishi ilmiy faoliyatlarning kengayishiga sabab bo'ldi. Madrsalarda turli ilmiy va aqliy bilimlar o'qitilishi talabalarni ayni damda bir necha ilm sohasida rivojlanishiga imkon berar edi. Bunday keng qamrovli ta'lim soyasida o'rta asrlar islom dunyosi ijtimoiy va madaniy sohada boshqa o'lkalardan yuqori saviyada bo'lgan.

Madrasalardan tashqari kutubxonalar ham muhim rol o'ynagan. Sulton va amirlar madrasalardan tashqari kutubxonalar ham qurdirar va homiylik qilar edi. Masalan, Sultonlar Qohiradagi "Kalatul-Jabal" kutubxonasida qiymatli kitoblar to'plaganlar. Yana bu davrda har bir masjid va madrasaning o'z kutubxonasi bo'lgan⁷.

Mamlukiylar davridagi bunday ilmiy muhit natijasida mufassir, muhaddis, tarixchi va faqih bo'lgan bir qancha yirik olimlar yetishib chiqqan. Bu davrda Ibn Kasir, Ibn Kazviniy (739/1338), Imom Zahabiy (748/1348), Taqiyuddin Subkiy (756/1355), Ibn Qoyyum al-Jazviyya (751/1350), Ibn Oqil (769/1367)⁸ kabi olimlar yetishib chiqqan.

Bu davrda tafsir, hadis, fiqh kabi ilmlardan tashqari tarix ilmi ham rivojlanib bordi. Islom tarixchiligining markazi Damashq va Misr bo'ldi. Tarixchilar orasida ham din olimi bo'lib ham tarix asarlari yozgan olimlar ham bo'lgan. Umumiy tarix yozuvchilar orasida faqat yashayotgan davrini yozgan yoki bir xonadon tarixi, bir shahar tarixini yozganlar ham bo'lgan. Bu davrdagi mashhur tarixchilar quyidagilardir: Abul Fido ibn Kasir (732/1331), Birzoliy (739/1338), Ibn-ul Vardiy (749/1349), Kutubiy (764/1363), ibn Habib al-Halabiy (779/1377).

Yuqorda ta'lidlab o'tkanimizdek Mamlukiylar davrida ilmlar orasida Qur'on ilmlari ham yetakchilik qilgan. Qirot ilmi Qur'oni karim o'qilishi va tilovatiga oid ilm bo'lib, bu ilm Saljuqiy va Ayyubiy madrasalarida bo'lgani kabi Mamlukiy madrasalarida ham masjid va madrasalarda o'qitilgan⁹. Bu davrda qirot ilmiga oid yozilgan asarlarning eng mashhuri "ash-Shatihyya" nomli asardir. Bu borada Ibn Hallikon "bu kitob zamonimiz kurrasining tamal kitobi edi. Ta'lim va darslarda bu kitob asos qilib olinardi. Qiroat ilmi bilan mashg'ul bo'lib, bu kitobni o'qib yod olmagan juda ozdir" degan. Bu davrda yetishgan mufassirlar yozgan asarlarida qiroat ilmiga keng o'rin ajratganlar.

⁶ Nuaymiy, Abul Mafohir Muhyiddin Abdulqodir ibn Muhammad ibn Umar. Ad-Doris fi tarixul madoris. Qohira 1988. II, B. 303-370.

⁷ Koprman. "Mamluklar", Tarix, VI. B. 42.

⁸ Yigit. "Mamluklar". Tarix, VII, B. 257-314.

⁹ Sheshen. Salohiddin Ayyubiy va davlat. Istanbul, 1987. B. 343.

Mamlukiylar davridagi eng mashhur qiroat olimlari orasida Ibn Jazariy sanab o'tiladi. Ibn Jazariy Damashqda tug'ilib, yoshligidayoq Qur'onni to'liq yod olgach, qiroat va hadisdan dars ola boshlagan. Ibn Jazariy Damashqda "Dorul Qur'on" qurdiradi va qiroat mudarrisi bo'lib faoliyat yuritadi. Ibn Jazariy hayotida davomida qiroat ilmiga oid "an-Nashr fi qiroatil ashro", "at-Tamhid fi ilmid-tajvid", "ad-Durratul muziyya fi qiroatil ahammati-s Salasa" kabi asarlar yozib qoldirgan.

Mamlukiylar davri madrasalarida tafsir ilmiga ham katta ahamiyat berilgan bo'lib, bir necha mashhur tafsir asarlari yozilgan. Xossatan, Abdullatif Bog'dodiyning "al-Vaziha fi tafsir al-Fotiha", Fahriddin Roziyning "Mafatihul g'ayb", Zamahshariyning "Al-Kashshof" kabi tafsirlarlari. Bu davr mufassirlari avvalgi davrlarda yozilgan tafsirlarni yanada boyitib, ba'zi tafsirlarni jamlagan mufassal tafsirlar yozganlar. Ibnul Noqib al-Maqsidiy (vaf.1298) ellikka yaqin turli tafsirlarni jamlab jildlar soni 70 yoki 100 orasi deb ko'rsatilgan mufassal bir tafsir tuzgan.

Rivoyat va diroyat uslubi tafsirlarining eng mashhurlaridan biri ham Mamlukiylar davrida yozilgan. Rivoyat tafsirlari orasida Tabariyning tafsiridan so'ng ikkinchi sirada qabul qilingan Ibn Kasir tafsiri ham ayni shu davrda yozilgan. Yana fiqhiy tafsir xususiyatiga ega Qurtubiy tafsiri ham shu davrda yozilgan.

Mamlukiylar davrida hadis ilmi ham rivojlanib, bu davrda hadis tarixning eng mashhur sorih va rijol ilmi olimlari yetishib chiqqanlar. Bu davrda muhaddislar avvalgi davrlarda yozilgan hadis asarlarini tahqiq etish, bir mavzuga oid hadislarni jamlash, ularni sharhlash kabi faoliyatni yuritishgan va bu borada asarlar yozib qoldirganlar. Masalan, bu davrning mashhur olimlaridan Jaloliddin Suyutiy "al-Jomi-us sag'ir" nomli asarida 10.031 ta hadisni jamlagan.

Bu davrga kelib hadis ilmiga oid avval yozilgan asarlarga mufassal va mukammal sharhlar yozilgan, taboqot va hol ilmida tarjimalar qilingan. Bu davrning diqqatni tortuvchi xususiyatlaridan biri ko'plab ayol muhaddislarining yetishib chiqqanidir. Misol tariqasida Ibn Hajar Asqaloniyni ustoz Oisha binti Muhammad, Sahavining ustoz Ummul Fadllarni keltirish mumkin.

Mamlukiylar davrida fiqh ilmiga alohida e'tibor berilgan. Bu davrda avval yozilgan fiqhiy asarlarga hoshiya va sharhlar yozilgan. Madrasalarning ba'zilari faqat fiqh ilmiga oid bo'lib ularning soni Qohirada 70 ta, Damashqda 130 ta, Quddusda esa 40 ta atrofida bo'lgan. Ibn Kasir bu madrasalarda dars bergan faqihlar soni haqida "to'rt mazhabning har birida 30 ta faqih bo'lgani va keyinroq bu son 54 tagacha chiqqanini" aytib o'tadi¹⁰. Bu davrda Izzuddin ibn Abdussalom (vaf.1262) kabi mashhur shofe'iy faqihlari yetishib chiqqan. Izzuddin ibn Abdussalom Qohira va Damashq madrasalarida mudarrislik qilgan, Mamlukiy sultonlardan Qutuz va Baybarsdan hurmat va ehtirom ko'rgan, o'ttiz beshga yaqin asarlar yozib qoldirgan.

Ibn Haldun Mamlukiylar davrida kalom ilmi borasida quyidagilarni aytadi: "Bu davrda kalom ilmi talabalar uchun zaruriy bo'lmagan bir ilmdir. Bu davrda mulhidlar, bid'atchilar yo'q bo'lgan. Ahli sunna imomlari ahli sunnada bo'lmagan mazhab va qarashlardan ustunlik ko'rsatib, ular ustidan zafar qozonganlar". Bu davrda kalom ilmida ham avval yozilgan asarlarga sharhlar yozilgan, yangi asarlar yozilish o'rniga avvalgi asarlarga ilovalar kiritish bilan chegaranilgan¹¹. Bu davrda kalom ilmining boshqa ilmlar kabi rivojlanmaganining

¹⁰ Ibn Kasir. Al-Bidoya van-nihoya. Qohira, 1932. J XIV.B. 113.

¹¹ Bekir Topalog'lu. Kalom ilmi. Istanbul, 1981. B. 34.

sababi sifatida quyidagilarni aytish mumkin: Ayyubiylar shialikka asoslangan Fotimiylar davlatini qulatib mintaqada boshqaruvni qo'lga olganlar va ahli sunna e'tiqodini yoyish uchun madrasalar ocha boshlaganlar. Bu madrasalar mamlakatning to'rt tarafiga yoyilgan edi. Madrasa ochishdan ko'zlangan maqsad shialik ta'sirini kamaytirib ahli sunna e'tiqodining ustunligini o'rnatish edi. Ayyubiylardan so'ng kelgan Mamlukiylar ham ayni shu yo'ldan yurdilar, natijada ma'lum vaqt o'tgach shialik mintaqadan yo'q bo'la boshladi. Shu tariqa Mamlukiylar davriga kelib, Misr va Shom o'lkalarida ahlu sunna val-jamoa e'tiqodi ustunlik qila boshladi.

Mamlukiylar davrida tasavvuf ilmi ham rivoj topdi. Mamlakat bo'ylab xonaqoh, rabot va zoviyalar qurilgan bo'lib, Maqriziyning xabar berishicha, Qohirada 22 ta xonaqoh, 11 ta rabot va 25 ta zoviya bo'lgan. Ayni shu davr tarixchisi Nuaymiyning xabar berishicha, Damashqda 29 ta xonaqoh, 23 ta rabot va 36 ta zoviya bo'lgan.

Xonaqoh, rabot va zoviyalarda zikrdan tashqari, ilmlar o'rganish uchun ham alohida joylar ajratilgan. Masalan, Sayfuddin Shayhul Umar tarafidan qurilgan xonaqohda qiroat, hadis, fiqh, shuningdek tib ilmi darslari o'qitilgan. Bu davrda tasavvuf Mamlukiy sultonlar tamonidan qo'llab-quvvatlangan. Mintaqada Rifo'iyya, Shoziliyya kabi tariqatlar yoyilgan.

Nahv va tilga oid boshqa ilmlar ham rivoj topgan bu davrda arab tilidagi eng mashhur lug'at "Lisonul Arab" yozilgan. Bu lug'at muallifi Ibn Manzur (vaf.1311) bo'lib, lug'at yigirma jilddan iborat bo'lgan. Mamlukiylar davrida nahv ilmi bilan Ibn Molik, Abu Hayyom, Ibn Hishom kabi olimlar tanilgan.

XIV-XV asr islom tarixchiligining markazi Misr va Shom bo'lgan. Ayyubiylar davrida bo'lgani kabi Mamlukiy sultonlar tarixchilarni himoya qildilar, qo'llab-quvvatladilar hamda ularga muhim vazifalar berdilar. Mamlukiylar davrida ham kotiblar ham diniy olimlar orasida tarixchilar chiqa boshlagan. Umumiy islom tarixini yozgan tarixchilar avvalgi voqealarni ma'lum manbalarga tayanib yozgach, o'z davrlarida bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni esa ko'zlari bilan ko'rgan shaxslar xabarlaridan va arxiv ma'lumotlaridan olib, asarlarining so'ngi qismida berib o'tganlar. Ayyubiylar davrida bo'lgani kabi Mamlukiylar davrida ham biografiya asarlarni yozish davom etdi. Ayni davrda sayohatnoma asarlar ham yozila boshlagan¹². Islom tarixining hech bir davri tarix manbalari ko'pligi jihatidan Mamlukiylar davriga qiyoslab bo'lmaydi. Bu davr islom ilmlari tarixida "ensiklopediya asri" nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu davrda yozilgan tarix asarlarida har yil alohida mavzu sifatida boshlanar ekan xalifa, sulton, vazir boshqa yuqori mansab egalari ismlari zikr qilib o'tilgan va o'sha yil hodisalari xronologik tarzda bayon qilingan. Mamlukiylar davrida Muhammad (s.a.v) siyratlariga oid asarlar yozish keng davom etgan.

Bu davrdagi eng mashhur tarixchilardan biri Imoduddin Ismoil ibn Shihobiddin Umar ibn Kasirdir. Ibn Kasirning tarixga oid mashhur asari "Al-bidoya van-nihoya" nomli kitobidir. "Al-bidoya van-nihoya" Ibn Kasirning islom tarixiga oid asari bo'lib kitob o'n besh juzdan tarkib topgan. Asar koinotning yaratilishi, lavhul mahfuz, insonning yaratilishi, Odam (a.s) davri va Muhammad (s.a.v)gacha bo'lgan payg'ambarlar qissasi, Muhammad (s.a.v) siyrati, Hulofai roshidinlar davri, sahobalar faoliyati hamda ilk islom tarixidagi davlatlardan, jumladan Umaviylar va Abbosiylardan Ibn Kasir yashagan davrgacha bo'lgan tarixni qamrab oladi. Al-Bidoya van-Nihoya asarida Andalus Ummaviylar davlati, Fotimiylar, Ayyubiylar, Mamlukiylar va Saljuqiylar kabi davlatlarning siyosiy, madaniy va iqtisodiy faoliyatiga ham

¹² Sheshen. Musulmonlarda tarix-jo'g'rofiya yozuvchiligi. Istanbul, 1988. B. 176.

katta o'rin bergan. Ibn Kasir asarida payg'ambarlar tarixini yoritishda Qur'on oyatlari va hadislardan keng foydalangan. Ba'zi voqealarni yoritishda isroiliyot manbalariga murojaat qilish bilan birga, o'zi keltirgan hadis, rivoyat va isroiliyot manbalarini ba'zilarini ishonchsiz ekanini ta'kidlab o'tadi. Asarda voqealar xronologik tarzda berilgan.

XULOSA

Mamlukiyalar davlati va hukmronligi islom tarixida muhim davr bo'lib unda islom ilmlarining barcha sohalarida asarlar yozilgan. Tarixga oid ko'plab asarlar yozilar ekan kalom ilmiga oid muhim asarlar bu davrda yozilmagan. Yangi asarlar yozilish bilan birga avvalgi davrlarda yozilgan asarlarga sharh va hoshiyalar qilingan. Qur'on ilmlari, fiqh, hadis hamda tasavvuf keng tarqalgan. Ta'lim dargohlari madrasalar bo'lib ular mamlakat bo'ylab qurilgan. Mamlakat san'at va madaniyat markazi bo'lib tibbiyot, geografiya va matematika kabi tabiiy fanlar ham rivojlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibn Tag'riberdi. An-Nujamuz zohire fil-mulukul Misr ve Qahire. Qohira, 1929.J. XI.
2. A.Vahbe Ajar. Islom tarixi darslari. Qaysari, 1995. J. II.
3. Kopraman. Misr mamluklari. Anqara, 2002. J.V.
4. Nuaymiy, Abul Mafohir Muhyiddin Abdulqodir ibn Muhammad ibn Umar. Ad-Doris fi tarixul madoris. Qohira 1988. J. II.
5. Ibn Battuta. Sayohatnoma. Said Aykut tarjimasi. Istanbul, 2004.
6. Ramazon Sheshen. Salohiddin Ayyubiy va davlat. Istanbul, 1987.
7. Ramazon Sheshen. Musulmonlarda tarix-jo'g'rofiya yozuvchiligi. Istanbul, 1988.
8. Ibn Kasir. Al-Bidoya van-nihoya. Qohira, 1932. J XV.
9. Ismoil Yigit. Mamluklar. Istanbul, 2004.
10. Bekir Topalog'lu. Kalom ilmi. Istanbul, 1981.

INNOVATIVE
ACADEMY